

**Anjela Kuganova Alimardon qizi**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Turizm fakulteti Xorijiy til va adabiyoti:

ingliz tili yo'nalishi 2-bosqich talabasi

[anjelakuganova325@gmail.com](mailto:anjelakuganova325@gmail.com)

+998950720329

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada tarjima turlari, soʻzma-soʻz tarjima, ideomatik tarjima va erkin tarjima, ularning oʻziga xos xususiyatlari va ingliz va oʻzbek tilida tutgan oʻrni haqida soʻz boradi.

**Kalit soʻzlar:** tarjima, tarjima turlari, soʻzma-soʻz tarjima, ideomatik tarjima, erkin tarjima.

**TYPES OF TRANSLATION**

**ABSTRACT**

This article talks about the types of translation, literal translation, ideomatic translation and free translation, their characteristics and their role in English and Uzbek languages.

**Keywords:** translation, translation types, literal translation, ideomatic translation, free translation.

**KIRISH**

Dunyo xalqlari bilan manaviy muloqotni taʼminlovchi muhim vosita bu tarjima hisoblanadi. Zamonlar oʻtishi bilan tarjimaga boʻlgan talablar yangilana borsada, ammo uning ijodiy xarakteri, qayta yaratish sanʼati ekanligi oʻzgarmasdan qoladi. Tarjimaning koʻlami va taraqqiyoti har bir xalqning maʼrifiy darajasiga va manaviy saviyasiga bogʻliq va, oʻz navbatida, u millatning ijtimoiy tafakkuriga samarali taʼsir etadi. Bugungi kunda XXI asrning zamonaviy tarjimashunosligiga koʻplab oʻzbek tarjimon valingvistlari oʻzhissalarini qoʻshib kelishmoqda. Bulardan Xurshid Davron, Muhammad Ali, Ibrohim Gʻafurov, Quadratxon Musayev, Abduzuxur Abduazizov, Najmiddin Komilov, Begoyim Xolbekovalarni misol keltirishimiz mumkin.

Bundan tashqari, Malkolm Marsh shunday deydi: "Tarjima –bu tushunish va ifodalashni oʻz ichiga oluvchi ikki qismli mashgʻulotdir. Tushunish maʼnolarni turli darajada idrok etish va shuningdek matn mazmun sohasi bilan tanish boʻlish uchun asliyat tili boʻyicha chuqur bilimni talab etadi. Ifoda etish asliyat tilida tushunilgan

narsani tarjima tilida iloji boricha aniq va ishonchli usulda hamda bir vaqtning o'zida asliyat tilidagi uslubni saqlab qolgan holatda qayta yaratish qobiliyatidir”.

### **Tarjima turlari haqida**

1. Tarjimaning turlarga bo'linish mezonlari.
2. Yozma tarjima. Og'zaki tarjima
3. Ketma-ket tarjima qilish
4. Sinxron tarjima va uning tarixi haqida
5. Tarjima jarayonida eslatma yozuvlar

### **Tarjimaning turlarga bo'linish me'zonlari**

Tarjimashunoslikda asl nusxa tili va tarjima tilidagi materialning qay shaklda amalga oshirilishiga qarab tarjimaning turli turlarini ajratish mumkin. Bu birinchi tasniflashtirishga asos bo'luvchi omildir. Tarjimashunoslikda tarjimaning turlarini ularning mazmuni va mohiyatidan kelib chiqib ajratish ham amalga oshirib kelinmoqda, unda tarjimaga aloqador har ikkala tildagi matnlarning shakli emas, balki ularning mazmuni yoki mohiyatiga tayanib tasniflashtiriladi.

L. S. Barhudarov asl nusxa tili va tarjima tili matnining qanday shaklda berilishiga ko'ra tarjimaning to'rt asosiy turini ajratadi:

- 1) og'zaki-og'zaki; 2) yozma-yozma; 3) og'zaki-yozma; 4) yozma-og'zaki.

#### **Bu tarjima turlari ichida og'zaki-og'zaki tarjima 2 turga bo'linadi:**

1) og'zaki izchil tarjima; 2) og'zaki sinxron tarjima. V. N. Komissarovning tarjima tasnifi quyidagicha: 1) badiiy tarjima; 2) informativ tarjima.

**G'. M. Xoshimov tasnifi:** 1) badiiy tarjima; 2) nobadiiy tarjima.

#### **R. K. Min'yar-Beloruhev tasnifiga ko'ra quyidagi tarjima turlari mavjud:**

- 1) yozma tarjima; 2) sinxron tarjima – og'zaki; 3) izchil tarjima;
- 4) varaqdan tarjima.

U yana nima tarjima qilinayotganligiga qarab tarjimaning quyidagi turlarini ajratish mumkin: 1) badiiy tarjima; 2) ijtimoiy-siyosiy tarjima; 3) ilmiy-tarjimaviy tarjima. Tarjima jarayonlari yer yuzidagi xalqlarning insoniyat sivilizatsiyasini birgalikda, yaqin hamkorlikda yaratib borganini ko'rsatadi.

**Sinxron tarjima:** og'zaki tarjimaning eng qiyin turi bo'lib, undan tarjimon gapiruvchi notiqdan bir so'z yoki jumlagacha orqada qolib tarjima qiladi, unga tarjima uchun vaqt berilmaydi. Tarjimon bunday paytda ham eshitadi, ham tushunadi, ham tarjima qiladi, ham gapiradi. Mana shu operatsiyalarning barchasini sinxron tarjimon bir vaqtda bajaradi. Bu esa undan chuqur bilim saviyasidan tashqari, tez mulohaza qilish, tez tushunish, tezda to'g'ri va to'laqonli tarjima qilishni talab etadi. Bu tarjima ingliz tilida “simultaneous/synchronous translation” deb yuritiladi.

**Yozma tarjima va og'zaki tarjima:** Og'zaki izchil tarjima sinxron tarjimadan oraliqdagi tarjima uchun berilgan vaqtlar bilan, qayta tarjima qilish imkoniyati borligi bilan ajralib turadi. Bunday tarjimada tarjimon avvalo notiqni tinglaydi, keyin uni mulohaza qilib, tarjima qiladi. Bu ingliz tilida "consequent translation" deb ataladi.

**Yozma-yozma tarjima :** uzoq tarixga ega. U eng ko'p qo'llaniladigan tarjima turlaridan bo'lib, minglab baidiy asarlar, millionlab hujjatlar va undan ham ko'proq ilmiy texnikaviy adabiyotlarning tarjimasi hisoblanadi. Bu tarjimoni amalga oshirish unchalik murakkab extralingvistik shart-sharoitlarni talab qilmaydi, chunki tarjimonga to'laqonli tarjima berish uchun barcha imkoniyatlar berilgan, yetarli vaqt, istalgan sharoit, qayta-qayta tarjima qilish, kim bilandir kengashish, maslahatlashish kabi katta imkoniyatlar berilgan.

**Yozma-og'zaki tarjima:** yozma matnning og'zaki tarjimasi demakdir. Bunday tarjima hayotda ko'p uchraydi. Bunga telegrammalar, yo'l-yo'riqlar, xatlar, hujjatlar va hokazolarning tarjimalari misol bo'lishi mumkin.

**Og'zaki-yozma tarjima:** ham tez-tez qo'llanib turadi, masalan, qandaydir og'zaki nutqning yozma tarjimasi, og'zaki suhbatning (muloqotning) yozma tarjimasi misol bo'la oladi. Har bir tarjima turi o'ziga xos ahamiyatga ega.

**Ketma-ket (izchil) tarjima:** Ketma-ket tarjima qilish bu bir tildagi og'zaki axborot berilgandan so'ng uni boshqa tilga tarjima qilishdir. Tarjimon so'zlovchining umumiy fikrlari yoki eng kamida asosiy abzasni tinglaydi va so'ng tinglash chog'ida yozib olingan eslatmalar (note-taking) yordamida nutqni tarjima qiladi.

## **INGLIZ VA O'ZBEK TILIDA QO'LLANILADIGAN TARJIMA TURLARI**

Tarjima jarayonida biror matnni bir tildan ikkinchi tilga o'girar ekanmiz, matndagi ikki jihatga alohida e'tibor berish kerak. Bular shakl va ma'no.

Shaklga asoslangan tarjima aslyat tilidagi shaklga mos bo'lishga harakat qiladi va so'zma-so'z tarjima (literary translation) nomi bilan ma'lum. Ma'noga asoslangan tarjima aslyat tilidagi matnning ma'nosini tarjima tilida tabiiy shakllarda yetkazish uchun barcha harakatlarni amalga oshiradi. Bunday tarjima idiomatik tarjima (idiomatic translation) deb ataladi. Buni yana shunday ifodalashimiz mumkinki, so'zma-so'z tarjima (literal translation) aslyat tilidagi shaklni moslashtirishga urinsa, idiomatik tarjima (idiomatic translation) aslyat tilidagi ma'noni ifodalashga urinadi.

**So'zma-so'z tarjima** –aslyat tilining strukturasi ko'zgusi bo'lib, tarjimoni tushunishni qiyinlashtiradi va asl ma'noni buzib ko'rsatishi mumkin.

**Ideomatik tarjima** –tarjima tili strukturasi amal qiladi va asl ma'noni tarjima tilida tabiiy usulda ifodalaydi

**Erkin tarjima** –ko`proq tarjima tili strukturasi amal qiladi, asl manbaning ba`zi qismlari o`zgartirilishi yoki buzilishi mumkin.

Quyida Robert T.Kiyosakining “Rich dad, Poor dad” asari hamda uning o`zbek tilidagi Mirafzal Mirfayziyev tomonidan qilingan tarjimasi “Boy ota, kambag`al ota” asaridagi uchragan tarjima turlarini ko`rib chiqamiz:

*To parents everywhere, a child's first and most important teachers, and to all those who educate, influence, and lead by example .*

*Ushbu kitob farzandlarining eng asosiy o`qituvchilari –butun dunyo otaonalariga bag`ishlanadi.*

Ushbu misolda erkin tarjima (free translation) usulidan foydalanilgan bo`lib, gapning asosiy mazmuni o`zbek tiliga o`girilgan.

*The love of money is the root of all evil.*

*Pulga mehr qo`yish barcha kulfatlarning ildizidir.*

*As a young boy, having two strong fathers both influencing me was difficult.*

*Kuchli ta`sir o`tkazuvchi ikki otam bo`lgani uchun men, yosh yigitga qiyin edi.*

Yuqoridagi misollarda, ideomatik tarjima (ideomatic translation) usulidan qo`llanilgan bo`lib, faqat so`zlar joylashuvi o`zbek tiliga moslashtirilgan.

*The lack of money is the root of all evil.*

*Pulning yetishmasligi barcha ofatlarning boshlanishidir.*

Ushbu misolda erkin tarjima usulidan foydalanilgan.

*My soon-to-be-rich dad would explain that by automatically saying the words “I can't afford it,” your brain stops working.*

*Yaqin orada boy bo`lib ketadigan otam buni quyidagicha tushuntirdi: “Men bunday qila olmayman!” deganda inson o`z miyasi ishini to`xtatadi.*

*He did not mean that you should buy everything you want.*

*Kelajakda boy bo`ladigan odam hamma narsaga ega bo`lish to`g`risida o`ylamasdi.*

Ushbu misollarda tarjimon erkin tarjima usulidan foydalangan.

Bundan ko`rinib turibdiki, tarjima murakkab jarayon bo`lib, tarjimon yuksak mahorat va chuqur bilim salohiyatiga ega bo`lishi lozim. Tilni bilishning o`zi badiiy asar tarjimasi bilan shug`ullanish uchun yetarli emas. Yuqoridagi misollardan shu xulosaga kelishimiz mumkinki, ingliz va o`zbek tiliga tarjimada so`zma-so`z tarjimadan qo`llanilmagan. Buning sababi ingliz va o`zbek tillari bir-biriga qardosh bo`lmagan tillardir, shu bois ularning grammatik strukturasi bir-biridan tubdan farq qiladi.

REFERENCES

1. Lecture on the Theory and Practice of Translation Namangan 2018.
2. CATFORDJ.C. A Linguistic Theory of Translation. Oxford University Press. –1978.
3. Larson L.M. Meaning-based translation, University Press of America. Inc.Lanham. New York. Oxpord. 1998.
4. 4.March, M. "The Value of L1> L2 Translation on Undergraduate Courses in Modern Languages". Proceedings of a Conference held at Harriot-Watt University. Edinburgh. 5-7 Jan.. 1986. In Translation in the Modern Languages Degree . edited by H. Keith and I. Mason 1987.
5. Nida, E. Toward a Science of Translation . Leiden, 1964.
6. Robert T.K. Rich dad, Poor dad. Plata Publishing, LLC. 2011 .
7. Robert T.K. Boy ota, kambag`al ota. Donnish chirog`i. 2019.